



2-bosqich 1-semestr.
10-mavzu: "Sab'ayi sayyor" dostoni



Adabiyot

Abdukadirova M.M.



Reja:

- 1 “Sab‘ayi sayyor” dostoni haqida.
2. Nizomiy Ganjaviy va Xusrav Dehlaviyning shu mavzudagi dostonlari.
3. Dostonidagi timsollar.
4. Dostonning badiiy xususiyatlari.



Alisher Navoiy "Xamsa" sining to'rtinchi dostoni "Sab'ayi sayyor" (yetti kezuvchi) deb ataladi. Asarning nomlanishi sababini shoir shunday izohlaydi:

Lutf bu nazm aro bag'oyatdur,
g'araz ammo yetti hikoyatdur.
Chunki qoyil yetti musofir edi,
Ki alar sayr ishiga mohir edi,
Bo'ldi chun bu raqam ishi tayyor,
Qo'ydum otini "Sab`ai sayyor".

(10-tom, 409)



Alisher Navoiyning "Sab'ayi sayyor" dostoni hijriy 889-yilning
melodiy 1484-yilning iyun oyida yozib tugatilgan:

Garchi tarixi erdi sekiz yuz,

Sekson o'tmish edi yana to'qquz.

Oyi oning jumodiyussoniy,

Panjshanba yozildi unvoni.

Varaqu satrin aylabon ta`yin.

Baytini besh ming ayladim taxmin. (10-tom, 411)



Turkiy tilda birinchi bo‘lib bu mavzuni Alisher Navoiy qalamga oladi va o‘z dostonini «Sab‘ayi sayyor» deb ataydi. «Sab‘ayi sayyor» dostoni 38 bob, 5009 baytdan iborat, shundan 11 bobni muqaddima tashkil qiladi.

Doston muqaddimasi an‘anaviy hamd bilan boshlanadi. Navoiy Allohni olamning yaratuvchisi sifatida madh etar ekan, dostonning mazmuni taqozosi bilan birinchi bobdayoq yetti raqamiga alohida e‘tibor qaratib, badiiy san‘ati vositasida falakning yetti qavat ekanligi, yetti gumbazdan tashkil topgani, yer yuzi yetti iqlimga bo‘lingani, yetti ko‘k, yetti yulduz kabilar haqida fikr yuritadi.



Darhaqiqat, Alisher Navoiy salafalaridan Nizomiy Ganjaviyning shu mavzuga bag‘ishlagan asari "Haft paykar" (“Yetti go‘zal”) deb atalgan bo‘lsa, Xusrav Dehlaviy uni "Hasht bihisht" (“Sakkiz bihisht”), zamondoshi Ashraf Marog‘aviy esa "Haft avrang" (“Yetti taxt”) deb nomlagan edilar.

Ularda asosiy diqqat Bahrom qissasiga qaratilgan bo‘lsa, Alisher Navoiy asosiy e‘tiborni musofirlar tomonidan aytilgan hikoyalarga qaratdi va Bahrom qissasini ana shu hikoyalarning aytilish vositasiga aylantirdi. Demak, Alisher Navoiy an‘anaviy mavzuni yangicha talqin, yangicha tahlil bilan boyitib, nazirai benazirni (o‘xshash-o‘xshamas) maydonga keltirgan edi.



Shoh Bahrom haqidagi qissa tarixiy asosga ega. Chunki Bahrom ibn Yazdijurd (Bahromi Go‘r, Varaxran V) sosoniylar xonadonining vakili bo‘lib, 421-439 yillarda Ajamning podshohi edi. Alisher Navoiy o‘zining "Tarixi muluki Ajam" asarida o‘sha davrdagi tarixchilar dunyoqarashi asosida Bahrom binni Yazdijurd haqida ma`lumot bergan [16-tom, 234-237]. Garchi Bahrom tarixiy shaxs bo‘lsa-da, ammo u og‘zaki va yozma adabiyotda tarixiy shaxslikdan ko‘ra badiiy obraz-timsol sifatida ko‘proq mashhurdir. Shuning uchun uning "sarguzashtlari" shunchalik badiiylashtiriladiki, natijada, tarixiylik o‘rnini badiiylik egallab boradi.



Yazdijurd o‘g‘li Bahrom otasidan so‘ng o‘zining qahramonligi – sherni yenggani bilan podshohlik toj-u taxtini qo‘lga kiritadi. Mamlakatda adolat va osoyishtalikni o‘rnatishga intiladi va shuning bilan birga go‘r-qulon oviga ham beriladi. Shundan uni Bahromi go‘r deb atash ham odat bo‘lib qoladi. Ov jarayonining birida Bahrom rassom Moniy bilan uchrashib, go‘zal Dilorom va uning ta`rifi hamda Moniy chizgan rasmni ko‘rib, unga oshiq bo‘lib qoladi. Diloromni Xojasidan Xito mulki evaziga sotib olib, saroyiga keltiradi. Dilorom go‘zallikda, xulqu atvorda hamda chang cholishda nodirai davron bo‘lganidan Bahromni o‘ziga maftun etadi.



Alisher Navoiyning "Sab'ayi sayyor"i tuzilish jihatidan oldingi dostonlaridan farq qiladi. Bu farq dostonning qoliplovchi qissa va turkum hikoyalar usulida yozilganidan ham bilinadi. Bu ham xamsanavislik an'anasining muhim detallareidan biridir. Ammo oldingi dostonlarda qoliplovchi qissa va etti hikoya alohida-alohida bo'lib tuyuladi. Alisher Navoiy esa o'z dostonida yettinchi musofir tomonidan aytilgan hikoyatni qoliplovchi qissa voqealari (Dilorom sarguzashti) bilan bog'laydi. Natijada doston qurilishida yaxlitlik maydonga keladi.



Maslahat bilan yetti iqlim shohi yetti qasr quradilar. Bu yetti qasr yetti shohning mamlakatiga olib boradigan yo‘l ustida quriladi. Rassom Moniy ularining har birini alohida bir rang bilan bezaydi. Bahrom ularni tomosha qilar ekan, kasali tuzala boshlaydi. Yetti rangdagi yetti qasr bitgach, yetti iqlim shohining yetti qizi Bahrom bilan nikohlanadi. Yetti qasrning har biri yetti sayyoradan birining rangiga mos bo‘lib, haftaning shu sayyora homiy hisoblangan kuniga xos edi. Yetti qasr tasvirini o‘qir ekanmiz, Navoiy har bir qasrdagi shoh, malika va musofir hamda jihozlar tasvirini berishda ranglarning turfa xil nomlanishlaridan ustalik bilan foydalanganiga guvoh bo‘lamiz.



“Sab‘ayi sayyor” Shoh Bahrom tinglagan hikoyatlar, o‘tkazgan kunlar va qasr ranglari uyg‘unligi



TIAME

Shanba	Homiysi — Zuhal	Qora qasr	Farrux va Axiy hikoyati
Yakshanba	Homiysi — Quyosh	Sariq qasr	Zayd Zahhob haqidagi hikoyat
Dushanba	Homiysi — Oy	Yashil qasr	Sa’d haqidagi hikoyat
Seshanba	Homiysi — Mirrix	Qizil qasr	Juna va Mas’ud hikoyati
Chorshanba	Homiysi — Utorid	Moviy qasr	Mehr va Suhayl hikoyati
Payshanba	Homiysi — Mushtariy	Sandal qasr	Muqbil va Mudbir hikoyati
Juma	Homiysi — Zuhra	Oq qasr	Dilorom haqidagi hikoyat



Shanba kuni uchun shu kunning homiysi Zuhal (Saturn) sayyorasining rangiga mos qora qasr - mushkfom qasrda shoh Bahrom hindistonlik sayyohning Farrux va Axiy haqidagi hikoyatini tinglaydi. Unga ko‘ra, Hind mamlakati podshosi Jasratxonning aql-u husnda tengsiz o‘g‘li shahzoda Farrux tushida bir parivashni ko‘rib sevib qoladi. o‘sha sanamga yetishish ishqida safarga chiqqan shahzoda Halab shahrida tushida ko‘rgan mahvashni uchratib hushidan ayriladi va taqdir taqozosi bilan birgina palosga o‘ranib og‘ir ahvolda qolganida unga saxovati bilan nom qozongan Axiy yordam ko‘rsatadi. Mazkur hikoyat yakunida sayyoh Shoh Bahromga o‘zining Axiy avlodidan ekanini ma'lum qiladi. Shoh uni siylab, saroyda olib qoladi.



**Жилва қилди нигори румий чехр.
Сариғ олтун аро нечукким меҳр.
Жоми зар ичра бодаи асфар,
Озар ичра эди яна озар.
Ламъа ҳар сори уйдin ошқондек,
Шуъла гунбад аро тутошқондек.**

**Красавица-румийка входит в дом.
Она — как солнце в небе золотом,
Вот в желтом кубке — желтое вино,
То пламя в пламени заключено.
Кровавым блеском исходил дворец,
Под сводами как бы пылал багрец.**



Bilamizki, Qora rang so‘zimiz boshida ta’kidlaganimizdek, musulmon xalqi uchun muqaddas rangdir. Qadimda ka’ba o‘rniga Quddus ziyorat etilgan. Ko‘rinib turibdiki botiniy ma’noda qora rang ostida Olloh vasqi, Olloh uyi – Qudsga ishora ham qora rang bilan berilmoqda.

Yakshanba kuni uning homiysi Quyosh sayyorasining rangiga mos sariq qasrda Shoh Bahrom rumlik sayyohning Zayd Zahhob haqidagi hikoyatini tinglaydi.



Луъбати ҳиндзоду чинийваш
Лаъли жонбахшу сунбули дилкаш.
Хулласин ойдек айлабон шабгун,
Дурлар ул ҳулла узра кавкабгун.
Тахту рахтини айлабон мушкун,
Мушк уза ер тутуб ғазолаи чин.

Дочь Индии, чьи губы — жизни цель,
Зови ее: китайская газель, —
Явилась в одеянии ночном:
Горели звезды-жемчуга на нем.
В одежде мускуса на трон вошла.
На черном троне воцарилась мгла.



Dushanba kuni Oy sayyorasining rangiga mos yashil rangdagi qasrda Sa'd haqidagi afsonani ko'zdan kechirar ekanmiz, yashil rangning Shahrizabz o'lkasining simvoli sifatida ko'ramiz. Ilohiy tomondan ko'rilsa, Oллоh Qur'onning 55-surasida yaxshi amalli bandalariga yashil bog', bog'ning ichida yashillikka burkangan yashil suyanchig'larga va'da beradi. Shuningdek, Alisher Navoiyning o'zi ham hikoya so'rog'iga ushbu rangga shunday ta'rif beradi:

Sho'x kim bo'ldi sarudek chalak,

Sabzai xatti aylar elni halak.

Xizr bu rangdin nishon topti,

Tong yo'qar umri jovidon topdi.



**Жилвагар бўлди сарви саборанг,
Айлабон хилъатини мино ранг.
Ўзи сабзу табассуми шакарин,
Хуш турур сабз гар эрур ширин.**

**Зеленой веткой гибкою вошла,
Со сладостной улыбкою вошла:
Улыбка — сахар нежного стручка,
А зелень хороша, когда сладка!**



Seshanba kuni Mirrik (Mars) Bahromning o‘zligini anglatuvchi sayyora ostida va rangda ya’ni gulgun rangli qasr – qizil qasrda hikoya tinglanadi. Ushbu rang – Nafsi muhhima bo‘lib, ya’ni solik qilayotgan ibodatidan haqiqiy zavq topadi. Faqat haq ishq bilan yonadi. Gulgun qasrda shohga gulgun rangli idishlarda gulgun boda tutqariladi.

Ushbu kuni shoh Yo‘na va uning do‘sti Ma’sud hikoyasini tinglar ekan, hikoya davomida Ma’sud shoh Yo’naga bir jom sovg‘a qiladi (qizil bodaga to‘la qizil jom) va uning hosiyyatini tushuntiradi. Ushbu jom bir to‘lgandan so‘ng hech qachon maydon bo‘shamasligini, aytib o‘tadi: Bu esa o‘z-o‘zidan ilohiy ishqqa ishoratdir.



Сарви гулчеҳр қилди истиқбол,
Гул киби борча рахти ҳуллаи ол,
Тахти гулранг уза тутуб ором,
Жоми лаъл ичра бодан гулфом.

Одежда шахская была красна.
Он цвета розы попросил вина.
На зов его пришла царица роз,
В ее руках был розовый поднос.



Chorshanba kuni havo rang (nilufar rangli) qasrda hikoya tinglanar ekan, biz uni 2 xil talqin etishimiz mumkin. Birinchi jihati Oллоh taolo ushbu kuni Rabg‘uziyning keltirishicha: “Suvni yaratdi, yellarni, bulutlarni chiqardi, daraxtlar, o‘t-o‘lanlarni yaratdi, ularga urug‘ boylab ko‘payish xususiyatini ato etdi, hammaga rizq-ro‘z ulashdi.” Ko‘rinib turibdiki olamdagi moviy, ko‘klikka burkangan mo‘‘jizalar ushbu kuni bunyod bo‘ldi.

Ushbu kuni Mehr va Suhayl hikoyasi tinglanar ekan, hikoyadagi aksariyat hodisalar dengizda ro‘y beradi. Shuningdek bundan tashqari hikoyani o‘qish davomida ushbu rangning motam belgisini ifodalashiga ham guvoh bo‘lamiz:



**Нилуфардек либослар била ой
Бўлди хуршеддек жаҳон орой.
Уйлаким кўз ёрутқали жовид
Чиқти кўк атласин кийиб хуршед.**

**Шах, в голубом от головы до ног,
Избрал жилищем голубой чертог.
Вошла к нему красавица тотчас.
Ее одежда — голубой атлас.**



Payshanba kuni shu kun homiysi Mushtariy (Yupiter) rangiga mos sandal qasrda Shoh Bahrom Muqbil va Mudbir haqidagi qissani tinglaydi. Unga ko‘ra, Muqbil va Mudbir Boxtar degan joydan Xovarga yo‘l oladilar. Muqbil ibodatli, rostgo‘y bo‘lib, Mudbir kazzob va pastkash edi. Ular qaynoq vodiysi hamimdan birga o‘tadilar. Mudbirning ahmoqona gaplaridan Muqbil ko‘p ozor chekib, undan voz kechmoqchi bo‘lsa, Mudbir yalinib tavba qiladi. Ular shu tariqa safarda davom etadilar. Dengiz sohiliga borib bir kemaga chiqadilar. Muqbil, odatdagidek, ibodat qilib, tasbeh o‘girib o‘tirsas, Mudbir Xudoga shirk keltirib valdiray boshlaydi. Shunda to‘fon kelib ularning kemasini g‘arq qiladi. Bu ikkisi taqdir taqozosi bilan qutulib qirg‘oqqa chiqib, o‘rmonga duch keladilar.



**Жилвагар бўлди сарви сандал бў,
Сандалигун либоси тў-бартў.
Ҳулла сандал насими турфа сижоф,
Сар-басар даврасида сандал боф.**

**Сандаловою свежестю дыша,
Сандаловыми платьями шурша,
Красавица, раскрыв свою ладонь,
Кусок сандала бросила в огонь.**



Juma uchun uning homiysi Zuhra (Venera) rangiga mos oq qasr barpo qilingan edi. Nihoyat, muborak juma (odina) kuni Bahrom oppoq - kofuriy kiyimda oq qasr ichida fil suyagidan yasalgan taxt ustida o‘tirib oq kiyimli go‘zal bilan billur jomda oq may ichadi va Chin go‘zali qoshida xorazmlik musofirning hikoyasini tinglaydi. Musofir o‘zining Xorazmdan ekanligini, soz chalishini, iqlimdagi barcha ustozlar uning shogirdlari ekanligini, kutilmagan-da bir chinlik savdogaming go‘zal kanizagi Xorazmga kelgach, uning ishi kasodga uchraganini, kanizak huzuriga borib arz qil-ganini, uning sozini tinglab, uning tarixi bilan qiziqqanini va kanizak unga boshidan o‘tganlarni so‘zlab berganini aytadi. Shoh Bahrom aytilganlardan bu kanizak Dilorom ekanligini bilib uni olib kelish uchun Xorazmga sipohlarini jo‘natadi.



Қилди, оламини ёрутуб нури,
Азми гунбаз саройи кофурий.
Хулла бирла ҳаририни бутти чин,
Бериб эрди бу ранг ила ойин.

Одетый в белый шелк, явился шах,
И потонул весь мир в его лучах.
Царевна, облачившись в белый шелк,
Была готова свой исполнить долг.



TIAME

Ranglar	Qora	Ko'k	Qizil	Sariq	Yashil	Turli rang	Oq
Metallar	qo'rg'oshin	qalay	temir	oltin	mis	simob	kumush
Toshlar	Yoqut (granat)	topar	Yoqut (rubin)	Qizil yoqut	zumrad	billur	Ko'k yoqut (sapjir)
Hayvonlar	yumronqoziq	kiyik	bo'ri	sher	echki	maymun	mushuk
Qushlar	Sassiq popushak	burgut	qirg'iy	oqqush	kaptar	laylak	boyqush



Bahrom va Dilorom sarguzashtlaridan iborat bo‘lgan qoliplovchi qissada ikki masala badiiy tarzda hal qilingan. Ulardan biri podshoh-oshiq masalasi bo‘lsa, ikkinchisi podshoh-hukmdor masalasidir. Bu masala, ya`ni Bahrom kim bo‘lishi kerakligi masalasi qissaning qahramoni Bahromning o‘zi tomonidan ham muhokama qilingan. Bu haqda Alisher Navoiy dostonning o‘n beshinchi - "Bahromning ishq tug‘yonidin bexirad..." deb nomlangan bobida alohida to‘xtaladi. Unda Bahromning o‘zi bu ikki yo‘ldan birini - yo haqiqiy hukmdor - podshoh bo‘lish yoki haqiqiy oshiq bo‘lishni tanlashi lozimligini tushunadi. Shunday bo‘lsa-da, Bahrom podshoh bo‘la turib, oshiq bo‘lishni ham istaydi.

Ki: "Agar bo‘lsa shohlig‘ boqiy,

Topilur bo‘yla mohvash soqiy.

Buki, vaslini topmisham payvast,

Shohlig‘ o‘lmasa, bermas erdi dast.

(10-tom, 106)



Dostondagi qoliplovchi qissa voqealari bayonida musofirlar tilidan aytilgan yetti hikoya mazmuni, gʻoyasi, badiiyati va qiziqarliligi bilan alohida ajralib turadi. Ulardagi voqealar Sarandeb (Shri Lanka-Seylon) dan tortib, Misr, Rum, Hindiston, Xorazm, Shahrizabzgacha boʻlgan katta jugʻrofiy hududda sodir boʻladi. Xuddi ana shu hikoyalardan ikkinchi musofir tilidan bayon qilingan voqealar tasvirida Alisher Navoiy muhandislikning mukammal namunasi boʻlgan oʻzi yurar taxt, oʻzi harakat qiluvchi zinalarni aks ettiradi. Eng muhimi shundaki, barcha hikoyalar ezgulik va olijanoblikning tantanasi bilan nihoyasiga etadi; sevishganlar murod-maqсадlariga erishadilar, adolat gʻolib keladi, yovuzlik va adolatsizlik engiladi. Hikoyalarda romantik tasvir usuli (taxayyul) yetakchi oʻrinni egallaydi.



1. Bahrom seshanba kuni qaysi qasrda kunni o'tkazadi?
a) yashil b) qora c) qizil d) moviy
2. "Sab'ayi sayyor"da Bahrom shanba kunini qaysi yurt malikasi bilan o'tkazadi?
a) Rum b) Hind c) Eron d) Shahrizabz
3. Dehlaviy "Xamsa"ning 1-dostoni qaysi?
A) "Mahzan ul-asror" B) "Matla ul-anvor" C) "Hayrat ul-abror" D) "Tuhfat ul-ahror"
4. "Xamsa" ning qaysi qahramoni Eron shohi Yazdijurdning o'g'li hisoblanadi?
A) Bahrom B) Xusrav C) Farhod D) Qays
5. «Sab'ayi sayyor» dostonida Dilorom xorazmlik sozchi-musiqachiga o'z sirini aytishidan oldin unga qanday shart qo'ygan?
A) Xorazmdan ketishni B) bu sirni hech kimga, aytmaslikni
C) sirni fosh qilmaslikka ont ichiradi D) otasiga — Xojaga bu gapni aytmaslikni.
6. "Sab'ayi sayyor" dostonida Bahrom Rum malikasi huzurida qaysi hikoyani tinglaydi?
A) Axiy haqidagi B) Sa'd haqidagi C) Juna va Mas'ud haqidagi D) Zayd Zahhob haqidagi



TIAME

Uyga vazifa “Sab’ayi sayyor” dostonini
o‘qish. Tisollarga tavsif berish.